



## BO'LAJAK MUSIQA MADANIYATI FANI O'QITUVCHILARINING KASB FAOLIYATIGA TAYYORLASH MASALALARI

**Muallif:** B. Mustafayev<sup>1</sup>

**Affilyatsiya:** Buxoro davlat universiteti “Musika ijrochiligi va madaniyat” kafedrası professori<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14513138>

### ANNOTATSIYA

Maqolada bo'lajak musika madaniyati fani o'qituvchilarini kasb faoliyatiga tayyorlashning mazmun-mohiyati, imkoniyatlari, o'qituvchining kasbiy professiogrammasi xususida mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** musika, ta'lim, shaxs, kasb, mahorat, muammo, musika, tarbiya, o'qituvchi, kompetentlik, ijodiy yondashuv, pedagogik texnologiya.

Musika san'ati va ta'lim-tarbiyasining shaxs kamolotidagi o'rni va ahamiyati nihoyatda katta. Zero, ushbu sohada kadrlarni tayyorlash, ta'lim sifatini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Shu bois, mamlakatimiz ijtimoiy-madaniy rivojlanishiga munosib hissa qo'sha oladigan oliy malakali mutaxassislar, pedagog kadrlar tayyorlash ishiga e'tibor va talab yanada kuchaytirildi.

Bo'lajak musika ta'limi mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlash - bu muttasil ijodiy jarayon bo'lib, shaxsni ma'naviy rivojlantirishga qaratiladi.

2020-yil 27-fevraldagi pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirishga doir PQ-4623-sonli qaror asosida oliy pedagogik ta'lim tizimida mutaxassis-o'qituvchilar tayyorlash ishi yanada takomillashtirildi [1]. Qarorga binoan, maktabda amaliy fanlarni o'qitilishiga e'tibor kuchaytirilib, jumladan musika ta'limi bakalavrlarini tayyorlash ishlariga faol kirishildi.

Ta'limda nazariya bilan amaliyotni bog'liqligini ta'minlash maqsadida 1-kursdan boshlab talabalar darslarining haftada 2 kunini maktablarda o'qitilishi belgilanganligi ham - maktab ta'limida musiqiy-ma'rifiy ishlarni yanada rivojlantirishga yordam beradi. Bu orqali ham talabaning, ham musika o'qituvchisi, ham oliygoh muallimining hamkorlik faoliyatida kasbiy mahorati oshishi inobatga olindi.

Yana bir muhim Davlat hujjati “Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevral PQ 112-sonli Qaroriga asosan musika o'qituvchilari kasbiy mahoratini oshirish maqsadida endilikda kamida 3 ta milliy cholg'u sozida ijro malakalarini o'zlashtirish vazifa qilib qo'yildi [2].

Musika ta'limi mutaxassislarining kasbiy faoliyatining muvaffaqiyatida pedagogik texnologiyalar alohida o'rin egallaydi. Ilg'or pedagogik texnologiyalarni ijodiy o'zlashtirib,

ulardan amalda unumli foydalanishni tabiiyki, malakali pedagoglarga amalga oshira olishadi. Ammo, o'qituvchining pedagogik texnologiyalarni bilishi va ularni qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi hali mutaxassisni pedagogik mahoratli, degan e'tirofga loyiqligini bildirmaydi. Kompetentli musiqa o'qituvchisining uslubiy-ijodiy faoliyatining muvaffaqiyati, aynan uning pedagogik texnologiyalarga o'ziga xos kasbiy yondashuvi hamda undan kutiladigan natijaga bog'liqdir.

Bo'lajak musiqa muallimining kreativligi, didaktik vaziyatlarda mustaqil harakat qilishi va o'z faoliyatini pedagogik-psixologik, musiqiy-metodik bilimlarga asoslangan holda amalga oshirishida namoyon bo'ladi. Bunda, albatta "... o'quv dasturlari shaxsni har tomonlama kamol toptirishga, ta'lim oluvchilarga bilim, malaka, ko'nikmalarni, saviyani shakllantirishda va ularning qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak" ligini ham alohida e'tirof etish muhimdir [3.20].

Musiqa o'qituvchisining innovatsion faoliyati o'quvchilarning musiqiy faoliyatlarda mustaqilligi, musiqa san'atiga qiziquvchanligini oshirish, ularda musiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, musiqani tinglash, idrok va tahlil etish ko'nikmasini shakllantirishda xizmat qilishi lozim. Shundagina pedagog o'z salohiyatiga ishonib, o'quvchilarning turli musiqiy-pedagogik faoliyatlarda o'zlarini ko'rsata olishlariga, qobiliyatlarini namoyon etishlariga ko'maklasha oladi.

Albatta, bugungi kunda musiqa ta'limida o'z ishiga ijodiy yondashadigan ilg'or, o'zlarining tajribalari ega musiqachi-pedagoglar ko'p. Biroq, mavjud pedagogik tajribalarni o'zlashtirish, takomillashtirish hamda ijodiy yo'naltirishga ayrim o'qituvchilarning intilishi sustligini ham ta'kidlash o'rinli. Ba'zi hollarda buni musiqa madaniyati fani o'qituvchilarining ta'lim jarayonidagi faoliyatida, malaka oshirish o'quvlarida ishtirok etishi, topshiriqlarni bajarishi darajalaridan ham kuzatish mumkin.

Musiqiy-pedagogik faoliyatlarda tarbiyaning muayyan shakli, vosita va usullarini tanlay olish, ularning samaradorligini oldindan ko'ra olish, ularni ta'lim-tarbiya maqsadlariga yo'naltira bilish – musiqa o'qituvchisi kasbiy mahoratning muhim qismi hisoblanadi. Zero, mutaxassis mahorati uning kasbiy faoliyatida namoyon bo'lib turadi.

Har bir o'quvchi o'ziga xos xulq-atvor va xarakterga ega. Shuningdek ularning musiqiy iqtidori, pedagogik-psixologik tayyorgarlik darajasi turlicha. Bo'lajak pedagog ta'lim-tarbiya berishda ularning o'ziga xos xususiyatlarini bilish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. Shu bois, musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorlanayotgan talabalardan bo'lajak kasbiga xos bo'lgan barcha sifatlarni yaxshi egallagan bo'lishi talab etiladi. Buning uchun musiqa-pedagogika oliy o'quv yurtlariga talabalarni tanlab olishda, ularning pedagogik layoqatiga qay darajada egaligini va bo'lajak kasbiga qiziqishini aniqlash lozim bo'ladi.

Ayni davrda oliy ta'lim sabog'ini olayotgan talabalar kasbiy bilim va mahoratni egallagach, istiqboldagi kasbiy faoliyatlari davomida muayyan muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatlariga ega. Bo'lajak musiqa madaniyati ta'limi o'qituvchilaridan ta'lim-tarbiya jarayoning didaktik-psixologik asoslarini bilishi barobarida musiqiy faoliyatlar jarayonida pedagogik boshqaruvni aniq tasavvur qilish va o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini kengaytirish pedagogik shart-sharoitlari va usullarini puxta egallash talab qilinadi.

Zamonaviy musiqa o'qituvchisi - yuksak madaniyatli, o'z kasbiga cheksiz sadoqatli, ilg'or pedagogik tafakkur sohibi bo'lmog'i lozimligi e'tirof etilmoqda. Zero, musiqa

madaniyati fani o'qituvchisi kasbining o'ziga xos xususiyatlari qatorida "o'zini uzluksiz kasbiy va madaniy rivojlantirish qobiliyatiga ega bo'lishi shartligi, musiqa, nafosat (estetika), pedagogika va psixologiya-fiziologiya fanlaridan, xususan musiqani o'qitish uslubiyotidan kompleks tarzda chuqur bilim hamda malakalar egasi bo'lmog'i darkor" ligi ta'kidlanadi [4]. Uning ilmiy tafakkur egasi, ilg'or tajribalar o'rganishi, izlanuvchan va ijodkor bo'lib, musiqa o'qitishning yangi shakl va usullarini kashf etishga intilmog'i lozimligi talab etiladi.

Shuningdek, o'qituvchi musiqa ta'lim-tarbiyasi mazmunini boshqa fanlar mazmuni va kundalik hayot bilan bog'lab, boyitib olib borishi ham nihoyatda muhimdir. Bunday ko'rsatgichga erishish uchun musiqa o'qituvchilarining mutaxassislik bo'yicha ma'lumoti, kasbiy tayyorgarlik darajasi alohida ahamiyat kasb etadi. Biroq, rasmiy tahliliy ma'lumotlarda ko'ra umumta'lim maktablardagi musiqa o'qituvchilarning 21 foizi o'rta maxsus ma'lumotga ega ekanligi, ba'zilarining cholg'u sozini chalish ko'nikmasi yo'qligi, musiqa o'qituvchilarni uchun amaliy malaka oshirish tizimi mavjud emasligi, bu borada maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, bolalar musiqa va san'at maktablari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilmaganligi e'tirof etiladi.

Bugungi kunda maktablarda musiqa sabog'i sifat-samaradorligini oshirish bo'yicha qator chora-tadbirlar aniqlanib, ularni amalga oshirishga kirishilgan. Xususan, musiqa madaniyati fani o'qituvchilarining bilim darajasi va kasbiy mahorati baholanib, malaka oshirish tizimi yo'lga qo'yilishi, o'qituvchilarga toifalar berishning yangi tartibi joriy qilinishi, sohani o'quv-uslubiy ta'minotini amalga oshirish belgilangan.

Xullas, musiqa ta'limi mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlash muhim jarayon bo'lib, kelajakda ushbu sohaning takomillashuvini va istiqbolini ta'minlash, uning samaradorligini oshirishga e'tiborni kuchaytirish hozirgi kunning dolzarb muammosi sifatida tan olinmoqda. Bu esa bo'lajak musiqa ta'limi mutaxassisidan yuksak kasbiy mahorat, shaxsiy ijobiy sifatlar hamda musiqiy ta'lim-tarbiya jarayoniga nisbatan yangicha ijodiy yondashuvni talab etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi PQ 4623-sonli "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qaqarori. // "Xalq so'zi". 2020 y. 28-fevral.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevral PQ 112-sonli "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori // "Xalq so'zi". 2022 y.4-fevral.

O'zbekiston maktablarida musiqa ta'limi Konsepsiyasi. "Ma'rifat" gazetasi. 1992 y. 25 noyabr.

Mustafoev B. Umumiy o'rta ta'lim tizimida musiqiy ta'lim islohoti va istiqbollari. [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/8209/5222](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8209/5222)

B. Mustafaev Soderjanie reformy vospitaniya muzykalnoy kultury molodeji [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/9690/6259](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9690/6259)